


# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*

<b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>	<b>122 374</b> 111,4 %
<b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>	<b>117 812</b> 111,5 %
<b>Yangi tashkil etilgan korxonalar (2023 - yilda)</b>	<b>15 772</b> 94,1 %

Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,3** foizga kamaydi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar





Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **3,9** foizga pasaydi




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,3** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




**9,4** foizga oshdi



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**10,5** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**2,1** foizga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **14,9** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar







**3,5** foizga kamaydi



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



# Oilaviy korxonalar soni (2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

10




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023 - yilning 1 - yanvar holatiga ko'ra 4 000 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 360 taga yoki 9,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 795 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 337 taga yoki 9,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 474 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 taga yoki 7,7 % ga ko'payganini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni (2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra 9 991 tani tashkil etib, ulardan 9 716 tasi yoki 97,2 % faoliyat ko'rsatmoqda.

2022 - yilning yanvar - dekabr oylarida 2 111 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)




**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	<b>Jami</b>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	<b>2 086</b>	<b>800</b>	<b>1 286</b>
Qozog'iston Respublikasi	<b>937</b>	<b>326</b>	<b>611</b>
Ozarbayjon Respublikasi	<b>207</b>	<b>57</b>	<b>150</b>
Ukraina Respublikasi	<b>169</b>	<b>76</b>	<b>93</b>
Qirg'iz Respublikasi	<b>165</b>	<b>54</b>	<b>111</b>
Belarus Respublikasi	<b>140</b>	<b>47</b>	<b>93</b>
Tojikiston Respublikasi	<b>130</b>	<b>44</b>	<b>86</b>
Turkmaniston Respublikasi	<b>66</b>	<b>20</b>	<b>46</b>
Armaniston Respublikasi	<b>37</b>	<b>16</b>	<b>21</b>
Moldova Respublikasi	<b>23</b>	<b>7</b>	<b>16</b>

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 21,5 %, Qozog'iston Respublikasi 9,6 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,3 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
<b>Toshkent shahri</b>	<b>9 716</b>	<b>3 335</b>	<b>6 381</b>
tumanlar:			
<b>Uchtepa</b>	<b>331</b>	<b>100</b>	<b>231</b>
<b>Bektemir</b>	<b>208</b>	<b>96</b>	<b>112</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>1 178</b>	<b>410</b>	<b>768</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>1 338</b>	<b>457</b>	<b>881</b>
<b>Mirobod</b>	<b>1 636</b>	<b>459</b>	<b>1 177</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>697</b>	<b>277</b>	<b>420</b>
<b>Olmazor</b>	<b>488</b>	<b>229</b>	<b>259</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>343</b>	<b>127</b>	<b>216</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>1 523</b>	<b>464</b>	<b>1 059</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>822</b>	<b>320</b>	<b>502</b>
<b>Yangihayot</b>	<b>146</b>	<b>61</b>	<b>85</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>1 006</b>	<b>335</b>	<b>671</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 636 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 16,8 %), Yakkasaroy – 1 523 ta (15,7 %), Mirzo Ulug'bek – 1 338 ta (13,8 %) hamda Yunusobod tumanlarida 1 178 tani (12,1 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Yangihayot 146 tani (1,5 %), Bektemir 208 ta (2,1 %), hamda Uchtepa – 331 ta (3,4 %) tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2023 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

15




2023 – yil 1 – yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar 122 374 tani tashkil etib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,7 %), Yunusobod – (12,5 %), Mirzo Ulug'bek – (11,5 %), Olmazor – (9,9 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,7 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,3 %), Yashnobod – (8,3 %), Sirg'ali – (5,2 %), Bektemir – (2,5 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,3 %) ni tashkil etgan.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)

2023-yil yanvar-dekabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni 15 772 ta bo'lib, tumanlar kesimida taqsimlanganda ularni jamiga nisbatan ulushi Chilonzor – (12,2 %), Mirzo Ulug'bek – (12,2 %), Yunusobod – (12,1 %), Shayxontohur – (9,3 %), Olmazor – (9,1 %) Yashnobod – (9,0 %), Yakkasaroy – (8,5 %), Mirobod – (8,5 %), Uchtepa – (7,7 %), Sirg'ali – (5,6%), Yangihayot (3,6 %) hamda Bektemir – (2,4 %) tumanlarida tashkil etgan.





(2022 - yilning yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



2022 - yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining soni 474 ta bo'lib, ularni tumanlar kesimida taqsimlanganda Yunusobod – (12,7 %), Olmazor – (12,7 %), Shayxontohur – (12,2 %), Uchtepa – (11,8 %), Yashnobod – (9,9 %), Chilonzor – (8,9 %), Sirg'ali – (7,0 %), Yangihayot – (6,8 %), Mirobod – (5,1 %), Mirzo Ulug'bek tumanlarida (4,6 %) Bektemir (4,2 %) hamda Yakkasaroy – (4,2 %) ni tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 - yilning yanvar - dekabr oylarida, birlikda)





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1 - ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**tel.: 71 203-88-31**